



## “YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

### AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA AJDODLAR MA’NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Ro‘ziyeva Habiba Esanmurodovna**

*SamDU O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo‘yicha) mutaxassisligi*

*1-bosqich magistranti*

#### INFO:

Qabul qilindi: 06.03.2022

Ko‘rib chiqildi: 08.03.2022

Chop etildi: 09.03.2022

**Kalit so‘zlar:** *ma’naviyat,  
ma’rifat, barkamol avlod,  
auditoriyadan tashqari  
mashg‘ulotlar, ajdodlar merosi*

#### ANNOTATSIYA

Maqolada auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar orqali talabalarning ma’naviyatini rivojlantirishning muhim omillari, ular orasida sog‘lom ma’naviy muhitni tarkib toptirishda ajdodlar ma’naviy-axloqiy merosni chuqur o‘rganish borasida fikr yuritilgan.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Hozirgi davrning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri barkamol avlodni shakllantirish hisoblanadi. Bu davlatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barkamol avlod ma’naviy tarbiyasi eng avvalo, oiladan oladi. Oila tom ma’noda xalqning bir necha asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlari, urf – odatlari va ana’analari asosida unib o‘sib kelayotgan avlodni ma’naviy – ruhiy jihatdan tarbiyalaydi. Shu sababli sog‘lom avlod shakllanuvchi jamiyatdagi ijtimoiy muhit, oila, mahalla, ta’lim muassasalarining roliga katta e’tibor qaratish lozim.

Azal-azaldan yurtimizda farzand dunyoga kelganidan boshlab, to kamolga yetguniga qadar uning ta'minoti, ta'lim-tarbiyasi va bilim olishi, kasb-hunar egallashiga, umuman, yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi Parlamentga Murojaatnomasida «...Xalqimizda «ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi»[1] degan fikrlari ham so'zimizni yana bir bor isbotlaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi bazasida talabalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlar, klublar markazlar va hokozalarning mazkur sohadagi imkoniyatlari, mazkur sohada erishilgan ilg'or tajribalar o'rganilib, umumlashtirilmoqda. Bu borada dotsent O'tkir Utanov domlaning "Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi" mavzudagi tadqiqotini alohida qayd etib o'tishimiz joiz. Olib bofgan ilmiy izlanishlari natijasida, "Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish samaradorligiga ularda ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy burch, ma'naviy fazilat, ma'naviy meros, ma'naviy vorislik kabi ijobiy hamda ma'naviy tahdid, ma'naviy zaiflik, ma'naviy tubanlik kabi salbiy omillar ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan dalillar asosida aniqlashtirilgan"[2].

Shu bilan bir qatorda, ushbu maqolamiz orqali oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarida, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar asosida yosh, barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalash hamda mazkur jarayonning samaradorligini oshirish maqsadida ajdodlar ma'naviy merosidan foydalanish masalalariga e'tibor qaratish joizdir. Ajdodlarimiz tasavvufiy, ma'naviy merosidagi ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, ayniqsa, bu borada Ahmad Yassaviyning tasavvufiy merosidagi diniy-irfoniy, badiiy-axloqiy, aksiologik qarashlarini ilmiy-falsafiy tahlil etish, o'rganish va undan barkamil inson tarbiyasida amaliy foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Xususan, Yassaviylik ta'limotini bugungi davr ma'naviy ehtiyojlari nuqtai nazaridan baholash yassaviylik tariqatini yangi konseptual-uslubiy asosda o'rganish, islom madaniyati va merosi masalalari bo'yicha yangi tadqiqotlarning yaratilishida ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, falsafiy bilimlar tizimida Ahmad Yassaviy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida birdamlik, bag'rikenglik, tinchlik, do'stlik, insonparvarlik kabi umuminsoniy ijtimoiy g'oyalarni mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy masalalaridan biri bo'lgan komil insonni tarbiyasidagi nazariy-metodologik asoslarini mazmunan boyitishga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, dunyoqarashlarini yuksaltirishda foydalanish bilan belgilanadi.

Xoja Ahmad Yassaviy butun hayoti davomida insonlarning baxt-saodati, ma'naviy pokligi uchun kurashib, hikmatlari orqali insondagi salbiy harakatlar, jamiyatning beqaror bo'lishiga sabab bo'lishi, ularni tartibga solish uchun esa Ollohni tushunib yetish, odob-axloqni o'rta qo'yish, qizu juvonlarni hayoli qilib tarbiyalash lozim, deb hisoblaydi[3].

Masalan:

Ulug'-kichik yoronlardin odob ketti,

Qizu zaif juvonlardin hayo ketti,

"Al-hayou min al-imon" deb Rasul aytti,

Hayosiz qavm ajoyiblar bo'ldi, do'stlar[4].

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan hikmat, pandu-nasihatlardan ko'rinib turibdiki, yoshlarning komil inson bo'lib shakllanish asosini ruhiy poklanish, nafsni tiyish,

irodani kuchaytirish, o'zini qayta tarbiyalash kabi omillar talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonlarini samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2018. – 29 dek.
2. Utanov U.K. “Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi”. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent.:2018. -B.10.
3. Хамзаев Ш.А. Яссавий қарашларида комил инсон концепцияси масаласи // “Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция тўплами 2-қисм.– Тошкент. 31 май, 2021. – Б.53-54.
4. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт - матбаа бирлашмаси, 1992. - Б. 62.
5. Хамзаев Ш.А. Интерпретация идей о человеческих нравственных ценностях и идеальной личности в произведении «Хикматлар» Ахмада Яссави // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №14 (том 3) (май, 2021).-Стр.273-278.
6. Ҳаққулов Н.Қ. Сиддикий-Ажзийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари// Falsafa va Hayot | Философия и Жизнь || Philosophy and Life. - 2020.- №SI-2Б. –Б.162-171.
7. Haqqulov, Nabijon Qahramonovich (2020) "INTERNATIONAL TOLERANCE IN THE EDUCATIONAL VIEWS OF SIDDIKI-AJZI," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 10 , Article 46. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss10/46>
8. Бегматова Д.М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье// «Молодой учёный».- 2011. - № 5 (28) . –Том.2 . –С.127-129 (URL: <https://moluch.ru/archive/28/3255/>)
9. Шодиев Р. Эволюция суфизма в условиях Мавераннахра // Falsafa va hayot халқаро электрон журнал. - 2020.- №1 Махсус сон.// -Б.215-222. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9505-2020-SI>
10. Шодиев Р. Философские концепции соотношения языка и мышления // ФИЛОСОФИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ сборник научных докладов международной научно-практической конференции, посвященной 25-летию семинара «Проблема обоснования знания» и 70-летнему юбилею профессора Кудряшева Александра Федоровича. 2017. С.261-267. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=32181982&pff=1>